SUN'IY INTELLEKTNING CHET TILLARINI O'RGANISHDAGI ROLI: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Saymurodova Madina Zohidjon qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Xorijiy til va adabiyoti fakulteti talabasi, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: madinasaymurodova2@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Zulfizar Yuldosheva Sobir qizi**
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Xorijiy til va adabiyoti fakulteti o'qituvchisi, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: zulfizaryuldosheva56@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21273061

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellektning ingliz tilini o'rganish jarayonidagi imkoniyatlari va muammolari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda SI vositalarining shaxsiylashtirilgan ta'limni tashkil etish, til ko'nikmalarini rivojlantirish va o'quv motivatsiyasini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, texnologiyaning madaniy-kontekstual cheklovlari, axborot ishonchliligi hamda undan foydalanish bilan bog'liq muammolar tahlil qilinadi.
Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ingliz tili, til o'rganish, chatbotlar, shaxsiylashtirilgan ta'lim, raqamli ta'lim texnologiyalari.

Аннотация. В данной статье на основе научных источников анализируются возможности и проблемы использования искусственного интеллекта в процессе изучения английского языка. Рассматривается роль инструментов искусственного интеллекта в организации персонализированного обучения, развитии языковых навыков и повышении учебной мотивации. Также анализируются культурно-контекстуальные ограничения технологии, достоверность информации и проблемы, связанные с её применением.
Ключевые слова: искусственный интеллект, английский язык, изучение языка, чат-боты, персонализированное обучение, цифровые образовательные технологии.

Abstract. This article analyzes the opportunities and challenges of using artificial intelligence in English language learning based on recent scholarly sources. It examines the role of AI-powered tools in supporting personalized learning, developing language skills, and enhancing learners' motivation. The study also discusses the cultural and contextual limitations of AI, information reliability, and the challenges associated with its application in language education.
Keywords: artificial intelligence, English language, language learning, chatbots, personalized learning, digital educational technologies.

Kirish. So'nggi yillarda sun'iy intellekt (Artificial Intelligence – AI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirib, o'qitish va o'rganish jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Xususan, chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ta'lim muhitini yaratish hamda til ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biriga aylandi. Zamonaviy AI vositalari foydalanuvchilarga grammatik xatolarni aniqlash, talaffuzni takomillashtirish, yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish hamda tezkor qayta aloqa olish imkoniyatini yaratmoqda [5].

Ma'lumki, ingliz tili bugungi kunda xalqaro muloqot, ilm-fan, biznes, turizm va axborot texnologiyalari sohalarida eng keng qo'llaniladigan global tillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlarga ko'ra, dunyo bo'ylab ingliz tilini o'rganuvchilar soni ikki milliarddan ortiqni tashkil etadi. Shu sababli mazkur

tilni o‘qitishda zamonaviy raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda (Lan va boshq., 2020; Rich, 2021) [8].

Sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ChatGPT, Gemini, Duolingo Max, Grammarly kabi SI asosidagi platformalar til o‘rganish jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ushbu vositalar o'quvchilarga istalgan vaqt va makonda mashq qilish, individual tavsiyalar olish hamda o‘z bilimlarini mustaqil ravishda takomillashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, chatbotlar va shaxsiylashtirilgan ta’lim tizimlari til o‘rganish jarayonini yanada interaktiv va moslashuvchan tashkil etishda muhim pedagogik vosita sifatida e’tirof etilmoqda [6].

Shu bilan birga, sun’iy intellektdan foydalanishning ayrim cheklovlari ham mavjud. Jumladan, SI tizimlari madaniy-kontekstual xususiyatlarni har doim ham to‘liq aks ettira olmaydi, ayrim hollarda ishonchsiz ma’lumotlarni taqdim etishi yoki o‘quvchilarda texnologiyaga ortiqcha qaramlikni shakllantirishi mumkin. Mazkur holatlar sun’iy intellektni an’anaviy o‘qitish metodlari bilan uyg‘un holda qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi [3].

Mazkur tadqiqotning maqsadi sun’iy intellektning ingliz tilini o‘rganishdagi imkoniyatlari va mavjud muammolarini zamonaviy ilmiy manbalar asosida tahlil qilish hamda uning til o‘rgatish samaradorligiga ta’sirini baholashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Sun’iy intellektning chet tillarini o‘qitish va o‘rganish jarayonidagi imkoniyatlari so‘nggi yillarda ta’lim texnologiyalari sohasida eng dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Mazkur masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar asosan sun’iy intellektning shaxsiylashtirilgan ta’limni tashkil etish, til ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘quv motivatsiyasini oshirish hamda ta’lim samaradorligiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan.

Sun’iy intellektning til ta’limidagi umumiy imkoniyatlari Al-Anbaki (2024**)** tomonidan tizimli ravishda tahlil qilingan. Tadqiqotda SI texnologiyalari ingliz tilini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga oluvchi moslashuvchan ta’lim muhitini yaratishi, o‘qituvchilarga esa ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda yordam berishi ta’kidlanadi [1]. Mazkur yondashuv SI vositalarini faqat texnologik yangilik sifatida emas, balki zamonaviy pedagogikaning muhim tarkibiy qismi sifatida baholash imkonini beradi.

Ta’limni individuallashtirish masalasi Bhutoria (2022) hamda Kabudi, Pappas va Olsen (2021) tadqiqotlarida ham markaziy o‘rinni egallaydi. Olimlarning fikricha, sun’iy intellekt asosida ishlovchi adaptiv ta’lim tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘rganish sur’ati va ehtiyojlariga mos ravishda o‘quv materiallarini tavsiya etish orqali ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [2]. Ushbu qarashni Vorobyeva (2025) yanada rivojlantirib, SI yordamida tashkil etilgan shaxsiylashtirilgan ta’lim modeli nafaqat akademik natijalarni yaxshilashi, balki talabalarni kasbiy rivojlantirish va uzluksiz ta’limni qo‘llab-quvvatlashda ham muhim ahamiyat kasb etishini asoslaydi [13]. Demak, mazkur tadqiqotlar sun’iy intellektning individual yondashuvni ta'minlashdagi imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Til o‘rganishda generativ sun’iy intellekt va chatbotlardan foydalanish masalasi ham ko‘plab tadqiqotchilar e’tiborini tortgan. Xususan, Kohnke, Moorhouse va Zou (2023) ChatGPT kabi generativ SI vositalarining yozish, gapirish va tezkor qayta aloqa berishdagi samaradorligini ko‘rsatib, ularni chet tillarini o‘qitishning istiqbolli vositalaridan biri sifatida baholaydilar [7]. Lyu (2025) esa chatbotlardan foydalanish o‘quvchilarning xorijiy tilda muloqot qilishdagi xavotirini kamaytirishi, motivatsiyasini oshirishi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishini tajriba natijalari bilan asoslaydi [10]. Shuningdek, Labadze (2023) chatbotlarning ELIZA dasturidan boshlab zamonaviy generativ sun’iy intellekt tizimlarigacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, ularning oliy ta’limdagi amaliy ahamiyatini ochib bergan [8]. Ushbu tadqiqotlar SI vositalarining til o‘rganish jarayonida nafaqat yordamchi, balki interaktiv ta’lim muhiti yaratuvchi vosita sifatida shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellektning til k‘'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi tinglab tushunish kompetensiyasi misolida ham o'rganilgan. Li va Peng (2022) SI asosidagi platformalar o‘quvchilarning akademik natijalariga har doim ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmasligini, biroq ularning o‘quv jarayonidagi faolligi va motivatsiyasini oshirishini qayd etadilar [9]. Bunga mos ravishda Font de la Vall va González Araya (2023) sun’iy intellekt vositalari tinglash, talaffuz va lug‘at boyligini rivojlantirishda samarali

natijalar berishini ta'kidlaydilar [4]. Mazkur tadqiqotlar SI texnologiyalarining samaradorligini faqat baholash natijalari bilan emas, balki o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi ishtiroki va motivatsiyasi bilan ham baholash lozimligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellektning ayrim cheklovlari ham alohida e'tirof etiladi. Rowe (2022) mashina tarjimasi tizimlarida ayrim tillar va shevalarning sotsiolingvistik xususiyatlari yetarlicha hisobga olinmasligini ta'kidlab, bu holat tilning madaniy va ijtimoiy qirralarini noto'g'ri talqin qilishga olib kelishini ko'rsatadi [11]. Thompson va boshq. (2018) esa chatbotlar bilan muloqot jarayonida insoniy emotsional qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi o'quvchilarning uzoq muddatli motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini qayd etadilar [12]. Bundan tashqari, Cambridge University Press (2024) hisobotida sun'iy intellektning ta'limdagi salohiyati yuqori baholangan bo'lsa-da, uni o'qituvchining metodik rahbarligi bilan uyg'unlashtirish zarurligi alohida ta'kidlanadi [3].

Yuqorida tahlil qilingan ilmiy manbalar sun'iy intellektning ingliz tilini o'qitish va o'rganish jarayonida katta pedagogik salohiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati SI vositalarining afzalliklari yoki ayrim muammolarini alohida yo'nalishlarda yoritgan bo'lib, ularning imkoniyatlari va cheklovlarini kompleks ravishda qiyosiy tahlil qiluvchi tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada sun'iy intellektning ingliz tilini o'rganishdagi imkoniyatlari va muammolari zamonaviy ilmiy manbalar asosida kompleks tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda sun'iy intellektning ingliz tilini o'rganish jarayonidagi imkoniyatlari va mavjud muammolarini ilmiy jihatdan baholash maqsadida tizimli adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil hamda kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini sun'iy intellekt, raqamli ta'lim texnologiyalari va chet tillarini o'qitishga oid zamonaviy ilmiy izlanishlar tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida Google Scholar, Scopus, Web of Science va ResearchGate xalqaro ilmiy bazalarida e'lon qilingan ilmiy maqolalar, shuningdek Cambridge University Press tomonidan chop etilgan ilmiy hisobotlar tahlil qilindi. Adabiyotlarni tanlashda ularning ilmiy ishonchliligi, mavzuga bevosita aloqadorligi hamda nashr etilgan yili asosiy mezon sifatida belgilandi. Tahlil doirasida chatbotlar, generativ sun'iy intellekt platformalari, shaxsiylashtirilgan ta'lim tizimlari va nutqni avtomatik aniqlash texnologiyalarining til o'rganish jarayoniga ta'siri qiyosiy jihatdan baholandi. Shuningdek, mazkur texnologiyalarning til ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quv motivatsiyasini oshirish hamda ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan pedagogik va texnologik muammolar ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari turli ilmiy manbalarda keltirilgan nazariy qarashlar va empirik ma'lumotlarni o'zaro qiyoslash hamda umumlashtirish orqali shakllantirildi. Mazkur metodologik yondashuv sun'iy intellektning chet tillarini o'qitishdagi imkoniyatlari va cheklovlarini kompleks baholash imkonini berdi.

Natijalar va muhokama. O'tkazilgan ilmiy tahlillar sun'iy intellektning ingliz tilini o'rganish jarayonida keng imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, SI asosidagi platformalar o'quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash, ta'lim jarayonini moslashtirish hamda til ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy algoritmlar foydalanuvchilarning bilim darajasi, o'rganish sur'ati va yo'l qo'yayotgan xatolarini tahlil qilish orqali ularga moslashtirilgan tavsiyalarni taqdim etadi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga o'qituvchilarga ham individual yondashuvni tashkil etishda yordam beradi (Bhutoria, 2022; Kabudi va boshq., 2021; Vorobyeva va boshq., 2025) [13].

Tadqiqotlar chatbotlardan foydalanish o'quvchilarning xorijiy tilda muloqot qilishdagi ishonchini oshirish, til o'rganish bilan bog'liq xavotirni kamaytirish va o'quv motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qilishini ko'rsatadi (Kohnke va boshq., 2023; Lyu va boshq., 2025) [7;10]. Shu jihatdan chatbotlar nafaqat maslahat beruvchi dastur, balki o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanib bormoqda.

Tahlillar shuni ham ko'rsatadiki, SI texnologiyalari tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarni yaratmoqda. Nutqni avtomatik aniqlash tizimlari, turli aksentlarda tayyorlangan audio materiallar hamda individual qayta aloqa mexanizmlari o'quvchilarning eshitish va

talaffuz qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayrim tadqiqotlarda SI asosidagi platformalardan foydalanish talaffuzdagi xatolarni kamaytirishi va so‘zlarni to‘g‘ri idrok etish ko‘rsatkichlarini oshirishi qayd etilgan (Font de la Vall va González Araya, 2023) [4]. Shu bilan birga, Li va Peng (2022) SI platformalari akademik natijalarga har doim ham bevosita ta’sir ko'rsatmasligini, biroq o'quvchilarning darsdagi faolligi va ichki motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishini ta’kidlaydilar [9]. Demak, sun’iy intellektning samaradorligini baholashda faqat test natijalari emas, balki o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki ham muhim mezon hisoblanadi.

Biroq ilmiy manbalar sun’iy intellektning ayrim cheklovlarini ham ko‘rsatadi. Eng avvalo, SI tizimlari tilning madaniy, pragmatik va sotsiolingvistik jihatlarini har doim ham to‘liq aks ettira olmaydi. Til nafaqat grammatik qoidalar majmui, balki muayyan xalqning madaniyati, qadriyatlari va ijtimoiy tajribasini ifodalovchi murakkab kommunikativ tizimdir. Shu sababli sun’iy intellekt tomonidan taqdim etilgan javoblar grammatik jihatdan to‘g‘ri bo'lsa-da, real muloqot sharoitida tabiiylik va kontekst nuqtai nazaridan kamchiliklarga ega bo'lishi mumkin (Rowe, 2022) [11].

Yana bir muhim muammo SI tizimlarining emotsional intellektga ega emasligidir. A’'anaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchi o'quvchilarning psixologik holatini, motivatsiyasini va individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini boshqaradi. Sun’iy intellekt esa bunday insoniy omillarni to‘liq baholay olmaydi. Shu sababli chatbotlar bilan uzoq muddatli ishlash ayrim hollarda o'quvchilarda qiziqishning pasayishi yoki muloqotning sun’iy tus olishiga olib kelishi mumkin (Thompson va boshq., 2018) [12]. Shuningdek, sun’iy intellektdan ortiqcha foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarining sustlashishiga sabab bo‘lishi mumkin. SI tomonidan tayyor javoblarning tezkor taqdim etilishi ayrim hollarda o‘quvchilarning mustaqil izlanishga bo‘lgan ehtiyojini kamaytiradi. Shu bois ilmiy manbalarda sun’iy intellektni an’anaviy ta’limning muqobili sifatida emas, balki uni to‘ldiruvchi innovatsion vosita sifatida qo‘llash tavsiya etiladi (Cambridge University Press, 2024) [3].

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektning ingliz tilini o‘rganishdagi samaradorligi texnologiyaning o‘zidan ko‘ra undan qanday metodik yondashuv asosida foydalanilishiga ko‘proq bog‘liq.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari sun’iy intellektning ingliz tilini o‘rganish jarayonida samarali pedagogik vosita sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatdi. SI asosidagi chatbotlar, shaxsiylashtirilgan ta’lim platformalari hamda nutqni avtomatik tahlil qiluvchi tizimlar o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirish, individual ta’limni tashkil etish va o‘quv motivatsiyasini oshirishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Shu bilan birga, sun‘iy intellektning madaniy-kontekstual cheklovlari, emotsional intellektning mavjud emasligi, ayrim hollarda noto‘g‘ri ma’lumotlarni taqdim etishi hamda o‘quvchilarning texnologiyaga ortiqcha qaram bo‘lib qolish xavfi ushbu vositalardan foydalanishda ehtiyotkor va muvozanatli yondashuvni talab etadi.

Mazkur tadqiqot sun’iy intellektning imkoniyatlari va mavjud cheklovlarini zamonaviy ilmiy manbalar asosida kompleks tahlil qilish orqali uning ingliz tilini o‘qitishdagi pedagogik salohiyatini yoritdi. Tadqiqot natijalari SI texnologiyalarini an’anaviy o‘qitish metodlari bilan uyg‘unlashtirgan gibrid ta’lim modelini qo‘llash eng samarali yondashuvlardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Kelgusida sun‘iy intellekt vositalarining turli yosh va til darajasidagi o‘quvchilarga ta’siri hamda ularning uzoq muddatli pedagogik samaradorligini empirik tadqiqotlar asosida o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Al-Anbaki, M. S. (2024). AI in English Language Teaching: A Systematic Review of Trends, Opportunities, and Challenges. Faculty of Arts, Diyala University.
2. Bhutoria, A. (2022). Personalized learning and AI in education. Journal of Educational Technology, 14(1).
3. Cambridge University Press & Assessment. (2024). The Role of AI in Language Education: Where Your World Grows. Cambridge University Press.

4. Font de la Vall, R. R., & González Araya, F. (2023). Exploring the benefits and challenges of AI language learning tools. International Journal of Social Sciences and Humanities Invention, 10(1), 7569–7576.
5. Jegede, O. (2024). Smart systems in language acquisition: Feedback and correction mechanisms. Journal of Digital Learning, 18(2), 45–59.
6. Kabudi, T., Pappas, I., & Olsen, D. H. (2021). AI-enabled adaptive learning systems: A systematic review of the literature. Education and Information Technologies, 26(3), 3477–3507.
7. Kohnke, L., Moorhouse, B. L., & Zou, D. (2023). ChatGPT for language teaching and learning. TESOL Quarterly, 57(2), 537–550.
8. Lan, Y. J., et al. (2020). Global English and digital integration in the modern era. Language Learning & Technology, 24(1), 112–128.
9. Li, X., & Peng, Z. (2022). The impact of AI-based listening platforms on Chinese EFL classrooms: Motivation vs. Academic Outcomes. Journal of Language Teaching and Research, 13(4), 812–824.
10. Lyu, Q., et al. (2025). Chatbots as tools for reducing language anxiety and enhancing motivation in foreign language learning. Computers & Education, 210, 104118.
11. Rowe, E. (2022). Sociolinguistic biases in machine translation: A case study of Tagalog and regional dialects. Language in Society, 51(3), 401–420.
12. Thompson, A., et al. (2018). Human-like interaction expectations in conversational AI: Student perceptions. Journal of Educational Psychology, 110(5), 621–635.
13. Vorobyeva, K. I., Belous, S., Savchenko, N. V., Smirnova, L. M., Nikitina, A. A., & Zhdanov, S. P. (2025). Personalized learning through AI: Pedagogical approaches and critical insights. Contemporary Educational Technology, 17(2), Article ep574.
14. Rich, M. (2021). English as a Global Language: Statistics and Trends. Academic Press.